
Siz hududingizda o'tkazilayotgan obodonlashtirish ishlarida ishtirok etayapsizmi?

Bugun shahrimiz aholisi, katta-yu kichik bir yoqadan bosh chiqarib, hududlarning obodonlashtirilishi hamda "Dolzarb obodonlashtirish 30 kunligi" oyligida faol ishtirok etishib o'z hissalarini qo'shishmoqda. Ayniqsa, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va faollari tomonidan bu borada targ'ibot tadbirlarining o'tkazilayotgani ish unumini oshirmoqda.

Fuqarolarimiz o'zlari ekan mevali va manzarali daraxtlar ko'chatlarining parvarishiga ham alohida e'tibor qaratmoqdalar.

"Lolazor" mahallasida umumxalq hashari ko'tarinki ruhda fuqarolar faolligida o'tmoqda. Hashar milliyligimizga xos tarzda o'tayotgani barchani birdek quvontirmoqda.

Hurmatli fuqaro, Siz hududingizda o'tkazilayotgan obodonlashtirish ishlarida ishtirok etdingizmi? Hozir ham kech emas, o'z tashabbusingiz bilan mahallangizni obod bo'lishiga, yashil maydonlarni hamda obod maskanlarni kelajak avlodlarga qolishligiga o'z hissangizni qo'shgan bo'lasiz!

2022-08-06 17:08:55